





ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ЗАМОНАВИЙ ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР
ВА ТАРИХ ТАЪЛИМИ – БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ЮКСАК
МАЪНАВИЯТЛИ ШАХС СИФАТИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ
МУҲИМ ОМИЛИ**



*Республика илмий - амалий
конференцияси материаллари*

Қарши -2017



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ХАЛҚАРО АМИР ТЕМУР ФОНДИ
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТ БЎЛИМИ

**«ЗАМОНАВИЙ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР
ВА ТАРИХ ТАЪЛИМИ – БАРКАМОЛ АВЛОДНИ
ЮКСАК МАЪНАВИЯТЛИ ШАХС СИФАТИДА
ТАРБИЯЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ»**

Республика илмий-амалий конференцияси
МАТЕРИАЛЛАРИ

2017 йил 20 май

ҚАРШИ -2017

– Buxoroning so‘nggi o‘rta asrlarda birin-ketin hukmronlik qilgan uch o‘zbek xonligi davrida ham o‘z mavqeyini yo‘qotmay, poytaxt rolini bajarishda davom etishining zamirida bir qancha omillar yotishini ta’kidlagan holda, bu masalada shaharga yaqin mavzeda yashagan Jo‘ybor shayxlarining jiddiy ta’siri bo‘lganligini aytib o‘tish lozim. Boshqacha aytganda, ular o‘sha davrda nafaqat mazkur xonliklarning, balki mintaqaning ma’naviy hayotida yetakchi kuch bo‘lib, pirovardida, siyosiy-mafkuraviy masalalarni hal qiluvchi ijtimoiy jamoaga aylangan edilar. Bu borada hattoki Shayboniy hukmdorlarga bosim o‘tkazishga harakat qilishgan.

Xullas, Buxoro shahrining poytaxtga aylanishi jarayoniga qisqacha nazar tashlash shundan darak beradiki, bu davrda Buxoro O‘rta Osiyoning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Ayniqsa, so‘nggi Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan anchagina zaiflashgan ushbu poytaxt shahar Mang‘itlar hukmronligi davriga kelib, bir qator beqaror vaziyatlar istisno, birmuncha yuksalish davrini boshidan kechiradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] Хофиз Таниш Ал-Бухорий. Абдулланом. 1-китоб, Тошкент, 1999. – Б. 57.
- [2] Абдуллахон II ning rasman bo‘sh hukmdori sifatida taxtga ўтириши 1583 йилда амалга ошган. Унгача унинг отаси Искандар султон/Искандархон 1556-1583 йиллар оралигида бош хукмдор сифатида Миёнколда тахтда ўтирган бўлса-да, то унинг 1583 йилда вафот этгунига қадар амалдаги ҳокимият ўғли Абдуллахон II қўлида бўлган.
- [3] Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-китоб. Тошкент, Шарқ, 1999. – Б. 167; Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент, 1994. – Б. 36
- [4] Хафиз-и Таниш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф-наме-йи шахи. (Книга шахской славы) / Факсимиле рукописи D 88. Перевод с персидского, введение, примечания и указатели М.А. Салахетдиновой. Ч. I. – М.: Наука, 1983. – С. 52.
- [5] Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухарев XVI в. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 53.
- [6] Мукминова Р.Г. Народы Узбекистана в XVI – первой половине XVIII в. Государство Шайбанидов и Джанидов (Аштарханидов) //История Узбекистана Т. III. –Ташкент, 1993. – С. 50.
- [7] Агзамова Г. Ўрта Осиё хонликлари: пойтахт шаҳарлар тарихига оид айрим маълумотлар // Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият. – Тошкент: 2003. – Б. 78.
- [8] Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 406.
- [9] Вяткин В.Л. Шейхи Джуйбари // В. В. Бартольд. Сборник статей. – Т.: 1927. – С. 4
- [10] Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: 1994. – Б. 29, 36.
- [11] Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-китоб. – Тошкент, Шарқ, 1999. – Б. 168.

KLAVIXO “KUNDALIGI”DA KESHA DOIR TARIXIY GEOGRAFIK MA’LUMOTLAR TAVSIFI

U. Mo‘minov– *QarshiDU magistri*

Rivojlangan o‘rta asrlar davrida Yevropa tillarida yozilgan O‘rta Osiyoning tarixiy geografiyasini yorituvchi manbalar, ayniqsa XIII–XIV asrlardan boshlab ko‘payib bordi. Bu manbalar oldingi davr manbalarga qaraganda ma’lumotlarning ko‘pligi, aniqligi bilan ajralib turadi. Bu davrga mansub manbalar mualliflarining ko‘pchiligi Markaziy Osiyoga bevosita tashrif buyurgan yevropalik elchilik missiyalari a’zolari va sayyohlar bo‘lgani keltirilgan ma’lumotlarga ishonchni oshiradi.

Albatta, tarixda kechgan voqealarning ibratli tomonlarini o‘rganish, shu bilan birga, ularning salbiy jihatlarini ham yaxshi bilish kerak. Eng muhimi, tarixni bilgan, o‘rgangan odam, kim bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘p narsadan xabardor bo‘ladi [1].

Bu davrga mansub muhim manbalar sifatida XIII asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoga bevosita tashrif buyurgan Plano Karpini[2], Vilgelm Rubruk[3], Marko Polo (XIII asr) [4], Iogann Sheltberger[5], Rui Goncales de Klavixo[6] (XV asr) va boshqalarning asarlarini keltirishimiz mumkin.

Umuman olganda, yer yuzasining ma'lum bir qismini tarixiy-geografik ko'lamda o'rganish jamiyat tarixi, ayniqsa, inson va tabiat munasabati masalalari nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

O'lkaning o'sha kezlardagi mamuriy-hududiy holati, tabiati, xo'jaligi, savdo yo'llari va xalqaro munosabatlari geografiyasi xususida so'z yuritish uchun turli mazmundagi manbalardan foydalanishga to'g'ri keladi. O'lkaning XV asr boshlaridagi tarixiy geografik tavsifi ozmi-ko'pmi o'rin olgan yozma yodgorliklardan biri, ispan elchisi va sayyohi Klavixoning "Kundaligi"dir. Ushbu maqaloda mazkur asardagi Kesh tarixiy geografiyasiga oid malumotlarni taxlil qilish maqsad qilib qo'yildi.

Ma'lumki, XV asr boshlarida Amir Temur davlati siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan salohiyati kuchayib, G'arbiy Yevropa davlatlari hukumdorlari nazdida ham katta obro-e'tiborga ega bo'ldi va ular o'zaro hamkorlik munosabatlari o'rnatish maqsadida, Sohirqiron huziriga o'z elchilarini yo'llay boshladilar. Ana shunday davlatlardan biri Ispaniya edi. O'sha davrda Amir Temurning shuhrati butun Yevropaga tarqalgan edi. Shu sababli Muhammad Keshiy Kastiliya qiroli Don Enrike III huzurida katta hurmat-e'tibor bilan kutib olinadi. U qiroli saroyidagi va yirik zodagonlar qasridagi qabullarda ishtirok etadi. Qirol unga Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi o'z elchilarini qo'shib, hurmat-ehtirom bilan Samarqandga kuzatib qo'yadi.

Klavixo "Kundaligi"da Kesh oqar suvlar, o'tloqlar, bog'-rog'lar, ekinzorlar, gavjum qishloqlar o'ramidagi obod shahar ekanligi va uning devori hamda chuqur handaqi borligi, shahar darvozalari oldida handaq ustiga ko'tarma ko'priklar qurilgani aytilgan. 1404 yilning kuz oylarida Keshga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z esdaliklarida[7]. Atrofi kanallar va irmoqlar bilan o'ralgan tekislikda joylashgan Kesh degan katta shaharga yetib keldik. Shaharni bog'-rog'lar o'rab turar, atrofini adirliklardan iborat ko'p aholili qishloqlar, sersuv kanallar, katta ariqlar qurshab turadiki, bu joylar yozda juda chiroyli ko'rinsa kerak deb o'yladim. Hosildor yerlarda bug'doy, uzum, paxta, qovun va kattakon daraxtlar o'sib yotar, shahar atrofi bo'ylab chuqur handak qazilgan, darvoza oldida osma ko'prik mavjud. Oqsaroyning ro'parasida katta ko'zga tashlanib bog', bog'da har xil mevali daraxtlar va hovuz mavjud. Boqqa kiraverishning o'zidayoq uning kenglik ko'zga tashlanib turar, hovuzlarning atrofida, daraxtlarning soyasida yoz kunlarida bermalol o'tirib dam olsa ham bo'ladi".

Lekin eng muhimi, Kesh shahrida Amir Temur farmoni asosida barpo etilayotgan turli imoratlag, ayniqsa, Oqsaroy majmuasi tafsiloti bo'lib, ular o'sha davr boshqa manbalarida uchramaydi. Oqsaroy haqida, "Bu qasr shu paytgacha barpo etgan imoratlar ichida eng muhtashamidir", - deb to'g'ri qayd etgan. Chunonchi, Klavixo Keshdagi 20 yil davomida qurilayotgan ko'shklarning hashamatiga baho berar ekan, Parijning mohir ustalari ham bu ziynatlarni ko'rganda hayratga tushishini ta'kidlab o'tadi. Masalan, Klavixoning esdaliklarida Oqsaroyning hovlisidagi bog' ichida katta hovuz mavjudligi haqida ma'lumot keltirilib o'tiladi. Keyingi yillarda Shahrisabz Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyining ilmiy xodimlari tomonidan 2001-2002 yillardagi olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan sopol quvurlar Oqsaroy va shaharni suv ta'minoti Hisor tog'idan oqib keladigan Oqdaryo ta'minlaganini isbotlaydi. [8]

"Kundalik"da Amir Temur Kesh shahrida o'zi uchun xilxona qurdirgani haqida yozilgani ham nodir ma'lumotdir, shuningdek, Amir Temur otasi Amir Tarag'ay va to'ng'ich o'g'li Mirzo Johongir qabrlari ustiga maqbaralar barpo etgani ham yozilgan. Ushbu ma'lumotlar o'zining aniqligi va hayratlanarli tomonlari bilan o'z ahamiyatini hozirgacha yo'qotmay kelmoqda.

Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek "Avvalombor, Vatanini jonidan aziz ko'rgan Amir Temur bobomizning bizga qoldirgan nasihatlarini yuragimizga, qon-qonimizga, suyak-suyagimizga mustahkam jo qilishimiz lozim va bolalarimizni ham shu ruhda tarbiyalashimiz darkor". [9] Bugungi kunda bunday noyob, va bebaho shaharning olis tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, uning mazmunini farzandlarimiz, kelajak avlodga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda ziyolilar butun jamoatchilik uchun qarz ham farz bo'lishi, kerak bo'lsa har bir murabbiy ustoz vazifasi deb bilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. T., "O'zbekiston", 2016.
2. Джованни дель Пано Карпини. История монголов, которых мы называем татарами / Пер. со старофранцузского А.И.Малина // Путешествия ПаноКарпини и Вильгельма Рубрика. – М.: Географиздат, 1957. – С. 23-85.
3. Вильгельм Рубрук. Путешествие в восточные страны Вильгельма Рубрук в лето благодати 1253 / Введение, перевод и примечание А.И.Малина // Путешествия ПаноКарпини и Вильгельма Рубрика. – М.: Географиздат, 1957. – С. 88-195.
4. Марко Поло. Книга о разнообразии мира / Перевод И.Минаева. – М.: ЭКСМО, 2005. – 480 с.
5. {Шильтбергер И}. Путешествия Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке (с 1394 по 1427 г.) / Перевел с немецкого и снабдил примечаниями Ф. Брун. – Ташкент: Шарк, 1997. – 240 с.
6. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) / Пер. со стариспанского, предисловия и комментариев И.С. Мироковой. – М.: Главная редакция Восточной Литературы, 1990. – 212 с; Клавихо Г. История Великого Тамерлана // Тамерлан. Эпоха. Личность. Деяния. – М.: Гураш, 1992. – С. 299-344.
7. O'sha asar. B.349.
8. Xushvaqto'v N.O. Amir Temurning Shahrisabzdagi istirohat bog'lari O'zbekistonda an'anaviy bog' va bog'dorchilik san'ati "Kecha, bugun va kelajakda" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent, Yangi nashr nashriyoti, 2016 y. 25-bet.
9. Islom Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. T., O'zbekiston, 2015 y. 23-b.

ЎЗБЕКИСТОНДА САЙЛОВ ТИЗИМИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ

(Совет даври сайловчиларининг тарихий таҳлили)

Ш. Лутфуллаев – ЎзМУ магистри

1917 йил 1 (14) ноябрда Тошкентда амалга оширилган давлат тўнтариши натижасида ҳокимият советлар қўлига ўтди. 1917 йил 15 ноябрда Тошкент ишчи ва солдат депутатлари советларининг III Ўлка курултойи ўз ишини бошлади. 16 ноябрь кунги курултойга дехкон депутатлари келиб қўшилди. Курултойда катнашаётган хал қилувчи овозга эга бўлган 114 депутатдан 52 нафари сўл эсерлар, 32 нафари большевиклар, 17 нафари ўнгэсерлар ва меньшевиклар, 13 нафари максималистлар партияларининг вакиллари эди. Курултойда маҳаллий халқ вакилларида атиги 27 киши катнашди[1]. 19 ноябрда Курултой большевиклар ва максималистлар фракцияси номидан таклиф этилган "Ҳокимият тўғрисидаги декларация"ни қабул қилди. Унда шундай дейилганди: Большевиклар ва максималистларнинг бирлашган фракцияси мавжуд марказий ҳокимиятни ва уни ташкил этиш шаклини эътироф қилиш билан бирга, ишчи, солдат ва дехкон советларининг Ўлка советини ўлканинг олий ҳокимият органи деб ҳисоблайди ва бундан буён бу олий ҳокимият органи Туркистон Ўлка Халқ Комиссарлари совети деб аталади...»[2].

Большевикларнинг шовинистик ва зўравонлик сиёсатидан норози бўлган Туркистон ўлкаси туб аҳолисининг вакиллари 1917 йил 26 ноябрда Қўқонда ўлка IV умуммусулмонлари фавкулудда курултойига тўпландилар. 27 ноябрь кеч соат 18.00 да курултой Туркистон мухториятини ташкил этиш ҳақидаги қарорни эълон қилди. Курултой 28 ноябрда 54 нафар аъзо (36 нафари мусулмонлар ва 18 нафари ғайримусулмонлар) дан иборат Муваккат Халқ Шўросини ташкил қилишга қарор қилди.

Курултой қарорига биноан, Муваккат Халқ Шўроси 12 аъзодан иборат Туркистон Муваккат ҳукуматини тайинлади. Ҳукумат турли масалалар юзасидан бир қатор ҳужжатлар қабул қилди, лойиҳалар ишлаб чиқиб, уларни матбуотда эълон қилди. Лойиҳалар орасида энг диққатга сазовори «Туркистон мажлисига сайловлар Низоми» лойиҳасидир. Унда кўрсатилишича, Туркистон Таъсис мажлиси Самарканд, Каспийорти, Фарғона ва Сирдарё

138	Орзиев М.З.	Бухоро маҳаллий матбуотида жанубий Ўзбекистон тарихига доир маъумотлар ("Бухороий шариф" ва "Турон" газеталари мисолида)	275
139	Аслонова О.	Қадимги туркий битикларда таълим-тарбия ёдгорликларда баркамол авлод тарбияси	277
140	Ярманова Ю.	Туркий тилларнинг тарихдаги ўрни ва аҳамияти	278
141	Маматқулов А.Я.	Ўзбекистон иқтисодиётида районлаштириш сиёсати ва унинг оқибатлари тарихидан (1960-1980 йиллар)	280
142	Тўраев Ш.	Европа элчилари кундаликларида Амир Темурнинг давлат бошқаруви ва сарой тартиблари (испан элчиси Руи Гонзалес де Клавихо ва Султония архиепископи Иоанн мисолида)	283
143	Poyonov Sh.	Markaziy Osiyoning arablar tomonidan fath etilishining birinchi bosqichi xususida	285
144	Ko'charov J.	Abdulloh ibn Xurdodbeh - yirik tarixchi va geograf olim	287
145	Бўриев О., Усмонов М.	IX – XIII асрларда хоразм воҳасида этник вазият	289
146	Худойқулов Т. Д.	Қўқон хонлигида илм-фан ривожининг ўзига хос жиҳатлари	292
147	Исроилов М.	Ўрбда индустриал цивилизацияни шакллантирган тарихий омиллар	294
148	Umarov U.	Zarafshon vodiysida dasht qabilalari madaniyati (Zamonbobo madaniyati misolida)	297
149	Qo'shboqov H., Ho'janov N.	Buxoro shahrining xonlik poytaxtiga aylanishiga doir mulohazalar	299
150	Mo'minov U.	Klavixo "Kundaligi"da Keshga doir tarixiy geografik ma'lumotlar tavsifi	302
151	Лутфуллаев Ш.	Ўзбекистонда сайлов тизимининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи (совет даври сайловчиларининг тарихий таҳлили).	304
152	Мўминов У.	Кеш вилоятининг тарихий географияси	306
153	Мамарасулов Д.Т., Эсанов А.О.	Туркистонда совет даври матбуоти ривожига татар ва бошқирд матбаачиларининг қўшган хиссаси.	309
154	Қурбонов Х.	Мусо Туркистонийнинг "Улуғ туркистон фожеаси"асари – тарихий манба сифатида	312
155	Oripova N. X.	Tarix va qadriyatlarining o'zaro mushtarakligi	314
156	Рахимов Б.Э., Қўшбоқов Ҳ.А.	Туркистон генерал-губернаторлиги Каспийорти вилоятида хорижий сармоядорлар фаолиятидан	316
157	Daminov N.	Mustaqil davlatlar hamdo'stligining tashkil topishining tarixiy ahamiyati	319
158	Esanov A., Abduxolliqov V.	Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari (Samarqand viloyati misolida)	322
159	Мавлонов Ў., Махмасобирова Ф.	Номоддий маданий мерос ва миллий маънавиятимизнинг тарихий асослари	324
160	Назирова У.Қ.	Нажмиддин Кубро фарзанд тарбиясида рангларнинг аҳамияти ҳақида	326
161	Тўлаев Ё.	Бухоро хонлигида ҳарбий бошқарув	328
6 ШУЪБА ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ. АРХЕОЛОГИЯСИ, ЭТНОЛОГИЯСИ БЎЙИЧА ЯНГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР			
162	Эшов Б.Ж.	Ўрта Осиё қадимги давр урбанизация жараёнларини ўрганишнинг методологик хусусиятлари	331
163	Холиқулов А.Б.	Шахрисабз беклигининг Бухоро амирлиги сиёсий тарихида тугтаи ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми)	335
164	Ҳасанов А.	Мустақиллик йилларида Қашқадарё вилоятида урбанизацион жараёнлар	338
165	Шарипов Ф.	Калом илмининг етук алломаси.	340